



## ABDURAUUF FITRAT DRAMATURGIYASI. “SHAYTONNING TANGRIGA ISYONI” DRAMASI

*Farg'ona davlat universiteti  
filologiya fakulteti 3-kurs talabasi  
Saboxatxon Hakimjonova*

***Annotatsiya:** Mazkur maqola Shaytonning Tangriga isyonini ilohiy drama va ramziy ma'nolar kontekstida tahlil qilishga bag'ishlanadi. Unda Iblis obrazi mutakabbirlik va o'z-o'zini yuqori qo'yishning timsoli sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Shaytonning jannatdan haydalishi shunchaki jazo emas, balki koinotdagi dualizmning (ikki qutblilikning) boshlanishi ekanligi haqidagi qarashlar ilgari suriladi. Maqola davomida isyonning psixologik ildizlari — hasad, o'zlikni anglashdagi xatolik va yaratuvchiga nisbatan "men"lik da'vosining oqibatlari falsafiy mushohada qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Shayton, isyon, ego, ramziylik, dualizm, hasad, metafizika, jazo, erkin iroda, yovuzlik falsafasi, Iblis.*

Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega bo'lgan. U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan e'tirof etilgan ijodkor edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, u o'ndan ortiq dramatik asar yozgan. Fitratning dramaturgiyasi o'z davrining inqilobiy o'zgarishlari, milliy uyg'onish g'oyalari va ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liq. Uning asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Fitrat o'z asarlarida nafaqat tarixiy voqealarni aks ettirgan, balki zamonasining ijtimoiy fikrini ham shakllantirishga intilgan. Shuning uchun uning dramaturgiyasi faqat sahna san'ati



uchun emas, balki jamiyatning siyosiy-ma'naviy hayotiga ta'sir etish vositasi ham bo'lib xizmat qilgan. Fitrat ijodida yaqqol namoyon bo'ladigan jihat yangilanishga qaratilgan uslub bo'lib, shu bilan bir qatorda, u jadidchilik harakatining namoyandasi sifatida yuksalish, milliy va ma'naviy uyg'onishga intilgan.

Fitratning boshqa asarlaridagi gapi uning dramalarida istiqloлга intilish ruhi aniq seziladi. Ana shu maqsadda dramaturg halq o'tmishiga murojaat qiladi, tarixning qorong'u va bahs talab o'rinlariga yorug'lik kiritmoqchi bo'ladi, o'tmishdagi qahramonlar jasoratini eslatish orqali xalqni o'z istiqboli uchun kurashga chorlaydi. Tarixiy mavzuda yaratilgan drammalari "Temur sag'anasi", "O'g'uzxon", "Abo Muslim", "Qon", "Begijon" ning taqdiri shoirning o'z taqdiri yoki o'sha tarixiy qahramonlarining qismatidan ham fojialiroqdir. Chunki ularning ko'pchiligi ommaviy tarzda nashr etilmay qolib ketgan, faqat ayrim teatrlar sahnalarida bir necha bor qo'yilgan xolos.

"Temur sag'anasi" asari, bizningcha, 1918- yilning boshlarida yaratilgan bo'lib bu asar vositasida Fitrat xuddi avvalgi publitsistik asarlari kabi yurtdoshlariga murojaat qiladi, uning o'zligini eslatishga bu zulmat va g'aflatdan chiqib ketmoqqa da'vat etadi. Asarda Amir Temurning o'z qabridan tik turib, xalqiga qarata aytgan so'zlari dramining eng ta'sirli lavhalaridan bo'lgan. Uning so'zlari "Yurt qayg'usi" sochmasida asar qahramoni temur ruhiga murojaat qilgan bo'lsa, dramada unga javoban temurning so'zlari qalamga olinadi: "Men sizlarga ko'p narsalar yetkardim. Ne bo'ldiki bir zamonlar sharaflı va jasur bir millatning avlodlari hozir boshqa bir millatning zulm ostida qolmish. Kimlar bog'laringdan qushlarimni quvmoqda!.. Otalar merosida nimani oldingiz! Sizdan talab etaman qalqingiz! O'lkani tuzatingiz, avlodlarim menga har yashamoqlarini ta'min etingiz. Agar bunday qilmasangiz o'lka bir buyuk mozorlik holiga kelur". Tabiiyki, bunday keskin gaplar bilan bosqinchilarga qarshi nafratning ifodalanishi XX asr 20 yillarning oxirlaridan boshlab tanqidlariga va adabiy janjallarga sabab bo'lgan.



1921-yili sahnaga chiqqan "Qon" nomli besh pardali fojiiyaning taqdiri haqidagi yana hamma humronroq tasavvurga egamiz. O'sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida bosilgan xabarlardan bunday asarning sahnaga chiqqani, unda bayon etilgan voqealar yaqin o'tmishdagi hodisalar, ya'ni 1917-1918-yillarga taalluqli ekanini bilamiz xolos. Ayrim tadqiqotchilarning "O'g'uzxon", "Qon" nomli asarlari umuman sahna yuzini ko'rmagan deydilar. Ushbu asarlar taqdiri qanday bo'lganidan qat'iy nazar bizgacha matni to'la yetib kelmagan besh sahna asari fitratning dramaturg sifatida iste'dodining qanot yozganini keyinroq yaratilgan mashhur sahna asarlarining tug'ilishida o'ziga xos tajriba maktabini o'taganini qayd etmaslik mumkin emas.

"Shaytonning Tangriga isyoni" pyesasi ham "Abulfayzxon" bilan bir (1924) davrda yaratilgan. Bu har ikkala asar turkistonliklarga ularning vatanidagi siyosiy ahvolning bor haqiqatini achchiq til bilan izohlab bergan. Bu asarlarda muallif o'z fikrlarini g'ayri tabiiy alam tushunchasi bilan parchalab ifodaydi. Bu usul ayrim hollarda ba'zi dogmatik tanqidchilarga tashviqot olib borganday bo'lib ko'rinadi. Darhaqiqat, asarning ilk nusxasida 20 yillarning boshlarida dastlab biz ijobiy sanaganimiz ruslashtirish jarayonining ayrim tashqi jihatlarini keskin tanqid va piching ostiga olingan.

E.Olvort to'g'ri ta'kidlaganidek, bu ruh uning she'riy shaklda yozilgan kichik dramasi "Shaytonning Tangriga isyoni" da yaxshi aks etadi. Shayton yoki iblis deb nomlangan maxluq haqida musulmon kitoblarda ham, nasroniy adabiyotlarda ham talagina talqinlar mavjud. Biri uni "toshbo'ron qilingan", ikkinchisi "jannatdan haydalgan", boshqasi Alloh dargohidan quvilishini "hurlikka intilish", hatto "haqiqatni topish yo'li" deb tushuntirgan manbalar Fitrat asarni yaratgunga qadar ham bor edi, hozir ham mavjud. Bu voqea haqida Qur'oni karimda shunday oyat bor: "Aniqki, biz sizlarni yaratdik, so'ng sizlarga surat berdik, so'ng farishtalarga "Odamlarga sajda qilinglar" deyishimiz bilan ular sajda qildilar. Magar iblis sajda



qilguvchilardan bo'lmadi. (Alloh) dedi: "Senga buyurgan paytimda nima seni sajda qilishdan to'sdi?" — "Men undan yaxshiroqman. Meni olovdan yaratgansan, uni esa loydan yaratding", — dedi u". Turkiya adabiyoti ko'p tilga olingan xususan Fitratning zamondoshlari ozar adibi Husayn Jovid va tatar yozuvchisi Majid G'afurining asarlarida tasvir etilgan bu mavzuni negadir "ateistik" deb tushuntirish Olmoniya va Rusiya olimlari asarlarida uchraydi. Fitratning ushbu sheri dramasi olmonchaga tarjima qilib, uning ilk nashri bilan birga chop etgan olim I. Baldov ham bu fikrni takrorlabgina qolmay, balki ovrupa adabiyotiga singan "ekzissentializm" ning ko'rinishi sifatida baholaydi. Bizningcha, ruhi va uslub jihatdan "Ilohiy komediya"ga yaqin turuvchi bu ikki asar o'z zamonasidagi adolatsizliklarga qarshi qaratilgan diniy mifologik syujetni qayta ishlash asosida yaratilgan chuqur satirik asar sifatida o'rganilishi lozim.

Borliqdagi eng qadimgi va muhim drama — bu Tangri irodasiga qarshi ilk isyon, uning bosh qahramoni esa ko'plab diniy va falsafiy an'analarda Shayton, ya'ni Iblis sifatida tilga olinadi. Ushbu maqolada biz Shaytonning isyonini shunchaki ilohiy amrga itoatsizlik deb emas, balki chuqur ramziy va psixologik ma'nolarga ega hodisa sifatida ko'rib chiqamiz. Bu isyon — nafaqat insoniyat tarixi, balki butun koinotning mohiyatini shakllantirgan ikkilanish, tanlov va oqibatlar to'g'risidagi ulkan falsafiy mushohadaning boshlanishidir.

Shayton obrazi ko'pchilik uchun yovuzlikning o'zi bo'lib tuyulsa-da, uning isyonini tahlil qilishda "ego" — shaxsning o'zini boshqalardan, hatto Yaralganidan ustun qo'yish illati markaziy o'rinni egallaydi. Ilohiy ta'limotlarga ko'ra, Tangri Odam Atoni yaratib, farishtalarga unga sajda qilishni buyurganida, Iblis o'zini yaratilgan moddasidan ustun tutib, mag'rurlik va kibr bilan bu amrni bajarmaslikka qaror qiladi. Bu qaror — o'zini Tangridan ham buyukroq his qilish, o'z "men"ini oliy qadriyat deb bilishning eng yorqin ko'rinishi edi. Shunday qilib, isyonning



ildizlari nafaqat tashqaridagi kuchga qarshilikda, balki ichki dunyodagi, ya'ni "ego"ning shishib ketishida yotadi.

Isyonning natijasi — jannatdan haydaliş — bu ko‘plab talqinlarda shunchaki jazo sifatida qaraladi. Biroq, biz bu hodisani koinotdagi fundamental dualizm, ya'ni ikki qutblilikning boshlanishi sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Tangri yaratgan mukammal olamda, agar faqat yaxshilik hukmron bo‘lsa, uni anglash, uning qadriga yetish qiyinroq kechadi. Yovuzlikning paydo bo‘lishi, uning mavjudligi — bu yaxshilikni yanada yorqinroq namoyon etadi, erkin tanlov imkoniyatini yaratadi. Shaytonning isyoni, uning doimiy vasvasalari — bu insoniyatga o‘z irodasini sinash, yaxshilik va yomonlik orasidan o‘z yo‘lini tanlash uchun imkon beruvchi bir sinovdir. Bu dualizm — borliqning ajralmas qismi, u yaxshilikning mohiyatini belgilovchi zamin yaratadi.

Shayton isyonining psixologik ildizlari — hasad, o‘zlikni anglashdagi xatolik va yaratuvchiga nisbatan "men"lik da'vosining oqibatlarini — bugungi kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ko‘plab madaniy va diniy matnlar, masalan, Jon Miltonning "Yo‘qotilgan jannat" dostonidan tortib, Sharq mutafakkirlarining falsafiy asarlarigacha, ushbu Iblis obrazini turli yo‘nalishlarda tahlil qilib, uning inson ruhiyatiga ta'sirini ochib berishga harakat qilgan. Bu asarlar ko‘rsatadiki, Shaytonning Tangriga qarshi chiqqan isyoni, aslida, har bir insonda mavjud bo‘lgan o‘z "ego"si, mag‘rurligi va tanlov erkinligi bilan kurashning ramziy ifodasidir.

Lekin, biz bu asarga aynan bir tomondan qaramasdan, unga chuqurroq kirib borsak va ayni asar yaratilgan davrga qaraydigan bo‘lsak boshqa xulosalar ham kelib chiqadi. Asar syujeti an'anaviy diniy rivoyatga — Allohning Odamni yaratishi va barcha farishtalarga unga sajda qilishni buyurishi, Iblisning esa bu buyruqdan bosh tortishiga asoslangan. Biroq Fitrat bu voqeaga butunlay yangicha, dunyoviy va falsafiy ruh bag‘ishlaydi. Fitrat talqinidagi Shayton — shunchaki yovuzlik timsoli emas, balki mantiq, bilim va shaxsiy erk uchun kurashuvchi isyonkor obrazdir.



Dramada Shaytonning isyoni uning kibridan emas, balki mantiqiy mulohazasidan kelib chiqadi. U "Nima uchun men o'zimdanda past bo'lgan (tuproqdan yaratilgan) mavjudotga sajda qilishim kerak?" degan savolni o'rtaga tashlaydi. Bu yerda Fitrat Shayton tili orqali ko'r-ko'rona itoatgo'ylikni tanqid qiladi. Asardagi farishtalar — mustabid tuzumning so'zsiz itoat qiluvchi, fikrlashdan mahrum bo'lgan "to'dasi" ramzidir. Shayton esa bu to'dadan ajralib chiqqan, o'z "Men"iga ega bo'lgan shaxsdir. Uning: "Men sening qudratingga emas, adolatingga ishonmoqchi edim" qabilidagi gaplari o'sha davrdagi sho'ro mustabidligiga yoki diniy aqidaparastlikka nisbatan aytilgan isyon sifatida yangraydi. Fitrat ushbu asari orqali mutlaq hokimiyat va shaxs erkinligi o'rtasidagi abadiy konfliktni ko'rsatib bergan. Tangri obrazi asarda mutlaq hokimiyat egasi sifatida namoyon bo'lsa, Shayton uning qonunlariga shubha bilan qarovchi muxolifatdir.

Yozuvchi Shaytonni oqlashni maqsad qilmagan, balki shubha qilish va savol berish huquqi insoniyat taraqqiyotining asosi ekanligini ta'kidlagan. Fitratning o'zi ham jadid sifatida jamiyatdagi qotib qolgan aqidalarga, xalqni qullikda tutib turgan tuzumlarga qarshi isyon qilgan edi. Shuning uchun ham asardagi isyonkor ruh muallifning ichki dunyosi bilan hamohangdir. Dramada ramziylik kuchli. Odam Ato — hali o'zligini anglamagan, boshqariluvchi omma timsoli. Shayton esa bilim va tafakkur orqali keladigan azobni tanlagan qahramondir. Fitrat asar tilida o'tkir ritorika va falsafiy monologlardan mahorat bilan foydalangan. Bu monologlar kitobxonni dunyo nizomi, adolat va haqiqat haqida chuqur o'ylashga majbur qiladi.

Abdurauf Fitratning "Shaytonning Tangriga isyoni" dramasi shunchaki diniy mavzudagi asar emas, balki insoniyatning erkinlik sari intilishining badiiy ifodasidir. Fitrat Shayton obrazi orqali "fikrlovchi inson"ning fojiasini va ayni paytda uning buyukligini ko'rsatib berdi. Bugungi kunda ham ushbu asar bizni mustaqil fikrlashga, haqiqatni izlashga va har qanday ma'naviy qullikka qarshi turishga chorlab kelmoqda.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абдурауф Фитрат .”Оила” -Тошкент: Манавият ,2000.
2. Qodirov.M. “O‘zbek jadid adabiyoti” – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
3. G‘afurov.H. “Fitrat dramaturgiyasi” – Adabiyot va san’at jurnali, 1999.
4. Karimov.A. “Fitratning sahna asarlari” – Ziyouz.com maqolalar to‘plami.
5. Daryo.uz maqolasi: “Millatga najot yo‘lini ko‘rsatgan jadid: Abdurauf Fitrat hayotiga chizgilar”
6. Abdurauf Fitrat. “Shaytonning Tangriga isyoni” - 1924.
7. Abdurauf Fitrat. “Tanlangan asarlar” - Toshkent. Ma’naviyat, 2000.